


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura
mutaxassisligining
MALAKA TALABLARI**



Toshkent-2023

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1.	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo’llanilish sohasi	4
1.1.1	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo’llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	
1.2.1	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari	5
1.2.2	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	7
2	70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar	10
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	10
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	11
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.	12
	Bibliografik ma’lumotlar.....	14
	Kelishuv varag’i.....	15

1. 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi.

Magistraturada o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

Magistratura o’quv dasturining hajmi ta’lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta’lim texnologiyalaridan qat’iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o’quv yili uchun magistratura ta’lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi 5117-son qaroriga ko‘ra, 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi magistraturasida o‘qish uchun kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Mazkur malaka talab 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlash o’quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) mutaxassisligi bo’yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o’quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o’qituvchilari;

- mutaxassislikning o’quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo’yicha o’quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;

- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- mutaxassislikni ixtiyoriy tanlash huquqiga hamda bakalavriat darajasiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining soxalari.

- umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda Texnologiya fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o'rta maxsus va professional ta'limda mutaxassislik fanlari o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- oliy ta'limda Texnologiya mutaxassisligi bo'yicha kadr tayyorlovchi kafedra o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- qayta tayyorlash, malaka oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarida Texnologiya ta'limi metodikasiga oid fanlari o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- uzluksiz ta'limda Texnologiya fani o'qitish jarayoni;

- ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi;

- fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlari;

- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlarini qamrab oladi.
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida xamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar.

1.2.3. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi xamda magistr kasbiy faoliyatlarining soxalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-pedagogik faoliyatida:

- fanning zamonaviy yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini xisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ta'lim oluvchi shaxsining xar tomonlama rivojlantirish jarayonini motivatsiyalash va faollashtirish, o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligiga erishish, didaktik vositalardan samarali foydalanish; zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish, mavjud bilimlarni doimo boyitib borish extiyojini yuzaga keltirish, bir darsni tashxis etish, prognozlash va puxta loyixalashtirish;
- xar bir darsning ta'limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy extiyojlarni xisobga olish bilan mazmunini

optimallashtirish, idrok etish va o'zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo'llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan mos ravishda foydalanish;

– jamoaviy faoliyat usullari bilan birga ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish, tezkor qayta aloqani ta'minlash, nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, darsni maxorat bilan o'tkazishni ta'minlash;

– ta'lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviy-axlokiy fazilatlar (vatanparvarlik, tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, tolerantlik va boshkalar)ni shakllantirish;

– pedagogik odob talablariga amal qilish, ta'lim oluvchilar bilan xamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lish;

– ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish xamda rivojlantirish;

– ta'lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, xisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyixalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

– ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini xamda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash;

– ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, extiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyixalashtirish;

– ta'lim va tarbiya jarayonini ta'lim oluvchilarning yosh xamda psixofiziologik xususiyatlariga, shu jumladan ularning ta'limiy extiyojlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan xolda tashkil etish;

– pedagogik jamoa, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan xamkorlikni tashkil etish;

– kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish.

– pedagoglarning kasbiy extiyojlari, imkoniyatlarini o'rganish va taxlil qilish xamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-kuvvatlash tizimini loyixalashtirish;

- pedagoglarning xamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda qo‘llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baxolash;
- ta‘limiy dasturlarni va ta‘lim oluvchilarning individualligini rivojlantirish yo‘llarini loyixalashtirish;
- o‘quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik-korreksion materiallarini loyixalashtirish;
- o‘qitish jarayoni sifatini ta‘minlovchi ta‘limiy muxitni loyixalashtirish;
- bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatni loyixalashtirish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- manbalarga asoslangan xolda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, soxaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, xal etilishi lozim bo‘lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo‘nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;
- ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish va yangi ilmiy xamda amaliy natijalarni olish;
- zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta‘lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiyalar, ilg‘or tajribalardan foydalanish;
- ilmiy muammolarni xal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida:

- ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;
- o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta‘siri xaqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- maxallalarda ma‘naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suxbat o‘tkazish;
- milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mexr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- ta’lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o’qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirish;
- ilmiy va o’quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbik qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan jarayonlarni takomillashtirish *malakalariga ega bo’lishi kerak.*

Axborot-tahlil faoliyati bo’yicha:

- tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to’g’risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli ko’rsatkichlar bo’yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta’minotini yaratish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- tashkilotni rivojlantirishga yo’naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxonada, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma’lumotlar to’plash tizimlaridan foydalangan holda sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo’llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish jarayonida biznes-rejalarni ishlab chiqish va biznes jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;
- xorijiy hamkorlar bilan yozishmalar olib borish, elektron hujjatlar yuritish *malakalariga ega bo’lishi kerak.*

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o’rta va professional ta’lim tizimidagi pedagogik faoliyatda:

- mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasini egallashi;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o’rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo’nalishida nazarda tutilgan o’quv fanlari bo’yicha amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarini o’tkazish maxoratiga ega bo’lishi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’quv mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish;
- mutaxassislik fanlari bo’yicha mashg’ulotlarni o’tkazish uchun zarur bo’lgan o’quv- metodik xujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan xamda pedagogik faoliyat soxdsidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va uzuzini rivojlantirish;
- elektron axborot ta'lim muxitida ta'lim jarayonini pedagogik loyixalashtirish;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;
- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshka o'quv-me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

2. 70112301 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta'lim) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga kuyiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, o'z faoliyatida muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar moxiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatida undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va taxlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-xuquqiy xujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar kabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining moxiyati va axamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va taxdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, utkazish, ilmiy loyixalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyixalarda ishtirok etish uchun loyixa tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyixalarda ishtirok etish uchun loyixa tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- me’yoriy-xuquqiy hujjatlar bilan ishlash va ekspertizadan utkazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo‘shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

2.3.1. 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha o‘quv yuklamalari:

O‘quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Fanlarga ajratilgan soat	Fanlarga ajratilgan kredit miqdori
Majburiy fanlar	840	28
Tanlov fanlari	960	32
Malakaviy amaliyot	1800	60
jami	3600	120

3.3. 70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi:

70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi,	Umumiy yuklamaning hajmi,
		soatlarda	kredit
1	2	3	4
1.00.	Majburiy fanlar	840	28
1.01.	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5
1.02.	Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar	150	5
1.03.	Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi	150	5
1.04.	Xalqaro tadqiqotlar va ta’limda innovatsion texnologiyalar	150	5
1.05.	Texnologik ta’limning prognostikasi	150	5
1.06.	Kasbiy ma’naviyat	90	3
2.00.	Tanlov fanlar	960	32
3.00.	Ilmiy faoliyat	1800	60
	JAMI	3600	120

2.4. Kvalifikatsiya:

O‘qituvchi-tadqiqotchi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:
Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor A. Kirgizbayev

2023-yil



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

direktori Sh. Yakubov

2023-yil

M.O'.




O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi

Respublika ta'lim markazi
direktori Sh. Sattorov

2023-yil « db »

M.O'.



Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektor Sh. Sharipov

2023-yil



Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b. A. Qalandarov

2023-yil



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim)
ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab
chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste’molchilari o’rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“*16*” *iyul* 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birgalikda TDPUDA ishlab chiqilgan quyidagi magistratura ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70112301 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Texnologik ta’lim) magistratura ta’lim yo’nalishi.

Malaka talablari hamda o’quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-289-son hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan (hisob raqami 43) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi «Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to’g’risida”gi 35-2021-son buyrug’i hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta’lim markazi direktori

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor



Sh.Sattarov

Sh.Sharipov

A.Kirgizbayev